

Ibrohim ibn Nasr



Ibrohim ibn Nasr

Bo'ritegin, Tamg'achxon Ibrohim

(?-taxminan 1070)

(1040-1070)

Movarounnahrda G'arbiy qoraxoniylar xoqonligi asoschisi. **Qoraxoniylardan**. Otasi **Nasr ibn Ali**. Iloq hokimi (1017-1021). U yerda **Bo'ritegin**, amir va malik unvonlari bilan tangalar zarb ettirgan. Qoraxoniylar bekliklaridan **Alitegin** turkmanlar yordamida Movarounnahrni bosib olgan paytda (1025) Ibrohim ibn Nasr uning farzandlari qo'lga asir tushgan. 1037 yilda asirlikdan qochib Xo'jandni egallagan. Biroq, akasi, Farg'ona hukmdori **Muhammad** bilan chiqisha olmay, janubga yo'l oldi va 1038 yilda Amudaryo bo'yi viloyatlari Xuttalon, Vaxsh va Chag'oniyonni bosib oldi. U yerda kuch to'plab Movarounnahrni markaziy hududlariga bostirib kirgan va Kesh, Samarqandni egallagan (1040). Ko'p vaqt o'tmay u Movarounnahrni va Farg'onani o'ziga bo'ysundirib, mustaqil siyosat yurita boshlaydi. Natijada qoraxoniylar ikki mustaqil davlatga ajralib ketadi: Biri poytaxti **Bolosog'unda** bo'lgan **Sharqiy qoraxoniylar**, ikkinchisi markazi **Samarqandda** bo'lgan Movarounnahrda **Qoraxoniylar davlati** edi.

Ibrohim ibn Nasr o'zini **Tamg'achxon** deb e'lon qilgan va mustaqil davlat birlashmasi – **G'arbiy qoraxoniylar xoqonligiga** asos solgan. Bu g'alabalardan so'ng Ibrohim Tamg'ach "**bug'roxon**" unvoniga sazovor bo'ladi. Ibrohim ibn Nasr 1041-1042 yillarda Buxorni egallagan. 1043 yilda Chag'oniyonni g'aznaviylar, so'ngra bir oz vaqtdan keyin saljuqiylar bosib olgan. Ibrohim ibn Nasr saljuqiylar bilan Termiz va Balxga egalik qilish uchun kurashgan. XI asr o'rtalarida Sharqiy xoqonlikni qamrab olgan o'zaro janjallar, nizolardan foydalanib Ibrohim ibn Nasr Farg'ona, Shoh, Isfijob, Tarozi va hatto Qoraxoniylarning Chu vohasida joylashgan asosiy poytaxti **Bolosog'unni** ham egallab olgan. Biroq, shunga qaramasdan u Samarqandni o'z poytaxtligicha qoldirgan. Umrining oxirida falaj bo'lib qolgan Ibrohim hokimiyatni og'li **Shamsumulkka** topshirgan.

Tamg'achxon Ibrohim o'qimishli, aqlli va tadbirkor xoqon bo'lgan. O'z siyosatida ulamolarga tayanib ish yuritgan. U Samarqandda tartib-osoyshtalik o'rnatish va uning xavfsizligini ta'minlash tog'risida alohida g'amxo'rlik qilgan, og'rilik va talonchilik uchun qattiq jazolagan. Qurilish ishlariga katta e'tibor bergan.

Masalan, 1066 yilda uning buyrug'i bilan **Qusam ibn Abbos** maqbarasiga yaqin joyda *madrasa* qurilgan, shuningdek, Samarqandda qasr ham qurdirganligi ma'lum.

2023-10-29 21:06:53